



**“SKILLBRIDGE” – TALABALAR UCHUN ZAMONAVIY  
FREELANCERLIK PLATFORMASINI YARATISH**

**Zaripova Feruza Umidjon qizi**

*Buxoro davlat texnika universiteti talabasi*

**Annotatsiya**

Ushbu tezisda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan, zamonaviy freelancing platformasi – “Skillbridge” loyihasini yaratishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Kirish qismida raqamli iqtisodiyot sharoitida freelancing tizimining dunyo miqyosida rivojlanib borayotgani, biroq O‘zbekiston yoshlari, xususan, talabalar bu imkoniyatlardan samarali foydalana olmayotgani muammo sifatida ko‘rsatilgan. Mavjud xorijiy platformalarning murakkabligi, til to‘sig‘i va tajriba yetishmasligi kabi omillar tahlil qilingan.

Tezisning asosiy qismi “Skillbridge” platformasining konsepsiysi, maqsadi va vazifalariga bag‘ishlangan. Loyiha talabalarga o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha real buyurtmalarni bajarish, kasbiy tajriba orttirish, o‘z portfoliolarini shakllantirish va daromad topish imkoniyatini berishga qaratilgan. Platformaning asosiy funksional xususiyatlari, xususan, mentorlik va o‘qitish modullarini joriy etish, baholash va reyting tizimi orqali talabalar malakasini nazorat qilish mexanizmlari bayon etilgan. Natijalar qismida esa loyihaning talabalar bandligini ta’minlash, ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish va ta’lim bilan ish bozorini o‘zaro bog‘lashdagi roli yoritilgan. Xulosa qilib aytganda, “Skillbridge” nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, yosh mutaxassislar avlodini shakllantirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Freelancing, raqamli iqtisodiyot, “Skillbridge”, talabalar bandligi, kasbiy rivojlanish, portfolio, mentorlik, ta’lim va mehnat bozori, O‘zbekiston yoshlari.

**ASOSIY QISM**



“Skillbridge” – bu O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahlil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan milliy freelancing platformasi bo‘lib, u quyidagi vazifalarni bajarishga qaratiladi: Talabalarga o‘z fan yoki kasb yo‘nalishiga mos real buyurtmalarni bajarish orqali tajriba orttirish imkonini berish; Buyurtmachilar (korxonalar, tadbirkorlar, shaxsiy mijozlar) bilan xavfsiz va ishonchli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; Har bir foydalanuvchining portfolio, baholash tizimi, va ish tarixi asosida professional brendini shakllantirishiga xizmat qilish; Mentorlik va o‘qitish modullarini joriy qilish orqali platforma ichida malaka oshirish imkonini ta’minlash. Platformada dastlabki bosqichda quyidagi yo‘nalishlarda ish takliflari e’lon qilinadi: Grafika dizayn va multimedia ishlari; Web va mobil ilovalarni ishlab chiqish; Matnlar tarjimasi, maqola yozish, kontent yaratish; Marketing, SMM, reklama ishlari; Ta’lim va repetitorlik xizmatlari. Loyiha doirasida talabalar tomonidan bajarilgan har bir ish nazorat qilinadi, baholanadi va natijada ularning reytingi shakllanadi. Bu tizim keyinchalik o‘zini ko‘rsatgan talabalarni yirik kompaniyalar bilan bog‘lash imkonini yaratadi. “Skillbridge” loyihasi amalga oshirilsa, O‘zbekiston yoshlari uchun quyidagi ijobjiy natijalarga erishish mumkin:

Talabalarning mustaqil daromad topish imkoniyati kengayadi;

Ularning kasbiy mahorati real tajriba orqali rivojlanadi;

Ta’lim va ish bozorini bog‘lovchi ko‘prik vujudga keladi;

Yoshlarning xorijiy freelancing platformalariga tayyor holatda chiqishi uchun mustahkam tayyorgarlik bazasi yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Skillbridge” – bu oddiy freelancing platformasi emas, balki yoshlar va ish beruvchilar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaruvchi, ta’limni amaliyot bilan bog‘lovchi, yosh mutaxassislar avlodini shakllantiruvchi tizimdir. Ushbu loyiha nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lib,





mamlakatimizda yoshlar bandligini ta'minlash va ularning kasbiy rivojini qo'llab-quvvatlashga katta hissa qo'shamdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 27-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi Farmoni.
3. Axmedov A., To'xtayev B. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 248 b.
4. Djamalov A.R. Elektron tijorat va raqamli xizmatlar bozori: muammo va istiqbollar // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – №1(79). – B. 33–39.
5. Freelancing in the Digital Age: Trends and Opportunities. – World Bank Group. <https://www.worldbank.org>
6. Upwork Research. “Freelancing in America: 2023.” – Upwork.com. <https://www.upwork.com/research/freelancing-in-america>
7. Skill development for digital freelancing – ILO Report, 2020. <https://www.ilo.org>
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayti. <https://edu.uz>
9. Fikr.uz – O'zbekiston yoshlarining ilmiy-innovatsion platformasi. <https://fikr.uz>
10. Jalolova D. “Freelancingning yoshlar bandligiga ta'siri” // Yosh olimlar forumi materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 122–125.

